

EKOLOGIYANING BIZNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.

Zafarjon Madaminov

Geografiya kafedrası

Dodsenti va PhD

zafarjonmadaminov@gmail.com

Jabborova Marhaboxon Asqarali qizi.

*Farg'ona Davlat Universiteti geografiya yo'nalishi
talabasi.*

Annotatsiya: Ekologiya bizning hayotimizda, juda muhim ahamiyatga ega. Butun yer yuzida bo'layotgan jarayonlar, bizning ekologiyamizga ta'sir ko'rsatadi. Ekologiya bu – tabiatda yuz berayotgan hodisalarning Yer sayyorasiga ta'siri, doirasida yuz beradigan global, regional, mahalliy muammolardir. Insonlar hozirgi kunga kelib, ekologiyani tiklashga harakat qilmoqda. Ya'ni daraxtlar sonini ko'paytirishga, avtomobillar harakatini kamaytirishga, suvni tejab ishlatishga va chiqindilarni qayta ishlaydigan, korxona va zavodlardagi chiqindilar miqdorini kamaytirish borasida ishlar amalga oshirilmoqda, ekologiyaning ahamiyati shundan iboratki, agarda bizning ekologiyamiz buzilishga uchrasa, insoniyatga aks ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun biz atrof-muhitni buzilishiga yo'l qo'ymasligimiz va ekologiyani asrashimiz lozim.

Kalit so'z: ekologiya, suv (gidrosfera), yer (litosfera), havo (atmosfera), is gazi, o'rmonlar, cho'llashish, avtomobillardan chiquvchi gazlar, atrof-muhitni muhofaza etish, "yozyovon cho'llari", iqtisodiyot, "yashil makon".

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИИ В НАШЕЙ ЖИЗНИ.

Аннататсия: Экология – это важнейшая часть нашей жизни. Все проссы, происходящие на земле влияют на нашу экологию. Экология изучаем глобальные, региональные и локальные проблемы, возникающие в окружающей среде, такие как загрязнение воздуха, почвы и воды. Сегодня человечество сталкивается с многочисленными экологическими вызовами. Например,

повышение уровня выхлопных газов от автомобилей и вредных выбросов заводов, неправильное использование природных ресурсов, загрязнение водоемов и изменение климата. Для решения этих проблем предпринимаются различные меры, такие как переработка отходов, восстановление лесов и защита биологического разнообразия. Экология научит нас беречь природу и заботиться об окружающей среде. Для этого нужно формировать экологическую культуру и поддерживать экологическое равновесие.

Ключевые слова: Экология, загрязнение, воздух, вода, переработка отходов, сохранение природы, защита окружающей среды, экономия ресурсов, “зеленые зоны”, экономика, “зеленое пространство”.

THE TOL AND IMPORTANCE OF ECOLOGY IN OR LIVES.

Annatatsion: *Ekology is an essential part of pir lives. All processes occurring on Earth in fluence our environment. Ecology studies global, regional and lokal problems in the environment, duch as pollution of sir, doim, and water. Today, humanity faces numerous ecological challenges. For instance, the increase in emissions from vehicles and hatmful industrial waste, the improper user of natural resources, water pollution, and climate change. Various measures are bering taken to address these problems, duch as waste recycling, reforestation, and the protection of biodiversity. Ecology teaches usto preserre nature and care for the environ ment. To achievr this, it is necessary to cultivate ecological awareness and maintain ecological balance.*

Key terma: *Ecology, pollution, sir, water, waste recycling, nature preservstion, enviranmental protection, resource, conservation, “green zones”, economy, “green spaces”.*

Ekologiyaning bizning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati.

Kirish: Ekologiya biz uchun juda muhim. Chunki hayotdagi barcha narsa, bizning ekologiyamiz bilan bog‘liq. Qanchalik ekologiyani yaxshi holatda saqlasak, shuncha biz uchun yaxshi bo‘ladi. Ekologiya yomon holatda bo‘lsa, bu odamlarga ya’ni butun insoniyatga katta havf-hatar tug‘diradi. Ekologiyani asrab-avaylash bizning burchimiz. Masalan, suvdan noto‘g‘ri foydalanishimiz natijasida, ”chuchuk suv

tanqisligi” muammosi yuzaga kelmoqda, bu esa tashnalikni keltirib chiqarmoqda va “cho‘llashish” yuz bermoqda. O‘zbekistonning vohalarida chuchuk suv tanqisligi yuz bermoqda, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari qurg‘oqchil mintaqada joylashgan bo‘lib, asosiy suv manbayi Amudaryo hisoblanadi. Xorazm va Qoraqalpog‘istonda esa suv tanqisligi bor bo‘lib, asosan “Orol “muammosidan so‘ng kuchaygan. Jizzax va Sirdaryo vohalari o‘rtacha darajadagi suv resurslariga ega bo‘lsada, iqlim o‘zgarishi va suvni boshqarishdagi muammolar tanqislikni kuchaytirmoqda. Bunga birinchi navbatda iqlimning keskin isishi sabab bo‘lmoqda. Bu esa “issiqxona samarasi” muammosini keltirib chiqarmoqda, ya’ni havoga ko‘p miqdorda is gazi, karbonat angidrid va boshqa gazlarning oshib ketishi natijasida yuzaga kelmoqda va havoda freon gazlarining oshib ketishi natijasida “ozon qatlamining yupqalanishi” muammosi yuzaga kelmoqda. Ozon qatlamining yupqalanishi dastlab, Janubiy Amerikaning janubiy qismida kuzatilgan bo‘lib, keyinchalik Shimoli Amerikaning va Yevrosiyaning shimoliy qismida kuzatilgan. Bu esa quyoshdan keladigan ultrabinafsha va infraqizil nurlarning yer yuzasiga yetib kelishiga sabab bo‘lmoqda, bu o‘z navbatida insonlarning hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, insonda bosh og‘rig‘ini keltirib chiqarmoqda va insonning terisini kuydirib, qoraytirib yuboradi. Quyoshdan keladigan ultrabinafsha va infraqizil nurlar insonning salomatligiga har xil ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy ta’siri va salbiy ta’sirlardir, Ijobiy ta’sir kuzda “D” vitamini sintezi: UV-B nurlar terida D vitaminini ishlab chiqarilishiga yordam beradi. Bu vitamin suyaklar mustahkamligini saqlashda muhimdir. Ba’zi teri kasalliklari davolash: Psoriasis va boshqa ba’zi teri muammolarida UV terapiyasi qo‘llanadi. Salbiy ta’sir – teri kuyishi, UV-B nurlar uzoq vaqt ta’sir qilsa, terini kuydirishi mumkin. Teri saratoni: Ko‘p miqdorda UV nurlariga ta’sir qilish teri saratoni xavfini oshiradi. Ko‘z kassaliklari: UV nurlari katarakta va boshqa ko‘z muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Immunitetning pasayishi: Ko‘p miqdordagi UV ta’siri immun tizimining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Biz ekologiyani asrashimiz va tabiatni muhofaza etishimiz lozim. “Tabiat boyliklardan trio foydalanishimiz kerak. bu bizning kelajak avlod oldidagi burchimiz” degan fikr turli mutafakkirlar, siyosatchilar va ekologlar tomonidan aytilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT): 1972-yil Stokgolmda bo‘lib o‘tgan BMT “Atrof- muhit va rivojlanish konferensiyasida” tabiatni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish kelajak avlodlar uchun burch ekani alohida qayd etilgan. O‘zbekiston

Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham tabiat boyliklarini asrash va ulardan oqilona foydalanish haqida bir necha bor ta’kidlagan. Jumladan: 2020-yil, BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida: Shavkat Mirziyoyev tabiatni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishi va ekologik xavfsizlikni ta’minlash kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat ekanini ta’kidlab, Orol dengizi hududida ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha xalqaro sa’y-harakatlarni boshlash zarurligini aytdi. “Yashil makon” loyihasi doirasida: Prezident mamlakatda o‘rmonzorlar maydonini kengaytirish, daraxt ekish va ekologik barqarorlikni ta’minlashni muhim deb biladi. U bu borada shunday degan: “Biz tabiat boyliklarini asrash, atrof-muhitni muhofaza qilish va kelgusi avlodlarga sog‘lom muhit qoldirish uchun barchamiz mas’ulmiz”. Ushbu fikrlar. O‘zbekiston rahbarining ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalasiga katta e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi. Biz ekologiyani asrashimiz uchun birinchi navbatda, suvni tejab ishlatishimiz lozim, shundagina biz barqarorlikka erishamiz. Agarda biz suvni tejab- tergap ishlatmasdan, aniqlangan suv zahiramiz ham tugab qoladi. Bu esa “chuchuk suv tanqisligi” va “cho‘llashish” muammolari avj ola boshlaydi bu o‘z navbatida global muammo hisoblanadi. Suv ham bir kun tugaydigan tabiiy resurs hisoblanadi. Daraxtlarni kesmasligimiz kerak, chunki daraxtlar kesilsa, havo tarkibidagi inson sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan zararli gazlar va chang massalari ko‘payib ketishi mumkin. Daraxtlar, o‘simliklar, gullar va boshqa jamiyki yashil o‘sumliklar va tirik organizmlar uchun muhim hisoblangan is gazini yutib, karbonat angidrid gazlarini chiqarib beradi. Masalan,” oddiygina bir daraxtzor kesilsa, yerosti suvlari sathi pasayadi, u yerda yashovchi hayvonot olami boshqa joyga ko‘chadi. Shuningdek, shamol ta’siri kuchayib, tuproq yemirilishiga olib keladi, shu atrofdagi ob-havoda o‘zgarish ro‘y beradi. Kechalari salqinroq, kunduzlari issiqroq bo‘ladi” [5]. Biz atmosferani ham asrashimiz kerak. Chunki, atmosfera birgina yer sayyorasida mavjud. O‘zbekiston va boshqa mamlakatlarda ham “chiqindilarni qayta ishlaydigan korxonalar” mavjud bo‘lib, bu korxonalar har yili atmosferaga turli zararli birikmalarni chiqarmoqda, xususan har bir mamlakatda avtomobillar ishlab chiqarilmoqda bu esa avtomobillarning ichki yonuv dvigatellari yoqilg‘isining to‘liq yoki to‘liq bo‘lmagan yonishi natijasida hosil bo‘ladi. Bu birikmalarga quyidagilar kiradi: Uglerod oksidi (CO)-to‘liq bo‘lmagan yonishi natijasida hosil bo‘ladi. Rangsiz, hidsiz va juda zaharli gaz. Azot-oksidlari (NOX) – yuqori harorat va bosim ostida yoqilg‘i yonishi natijasida azot va kislorod

reaksiyasida hosil bo‘ladi. Havo ifloslanishi va kislotali yomg‘irga sabab bo‘ladi. Uglerod dioksidi (CO_2) – to‘liq yonish natijasida hosil bo‘ladi. Issiqxona effekti ha sabab bo‘luvchi asosiy gazlardan biri. Uglevodorodlar (HC) – yoqilg‘ining to‘liq yonmasligi natijasida hosil bo‘ladi. Fotokimyoviy smog (tushum) hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Oltingugurt dioksidi (SO_2) – kam miqdorda bo‘lsa-da, oltingugurtli yoqilg‘idan (masalan, dizel) hosil bo‘lishi mumkin. Kislotali yomg‘ir manbalaridan biri. Qattiq zarrachalar (PM) – Dizel yoqilg‘isi yonishi natijasida hosil bo‘ladi. Havo sifatini yomonlashtiradi va nafas olish tizimi kasalliklariga olib keladi. Qora tutun – dizel dvigatellaridan chiqadigan ifloslanish shakllaridan biri. U yonmagan uglerod zarrachalaridan iborat. Ushbu zararli birikmalarni kamaytirish uchun avtomobillarda katalitik neytrolizatorlar, gaz tozalash tizimlari va elektr yoki gibrid texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega, biz yerni asrashimiz va ko‘plab nihollar ekishimiz kerak. O‘zbekistonimizni “yashil makon”ga aylantirishimiz lozim. Masalan, ekologiya va iqtisodiyotimizga juda katta ta’siri bor. Suv bo‘lmasa ishlab chiqarish inqirozga uchraydi. Suvsiz, ishlab chiqarish bo‘lmaydi, yoki yerning unumdorligi – yerdan noto‘g‘ri foydalanish natijasida yerning unumdorligi pasayadi, tuproqdan suv qochib, sho‘rlanishga uchraydi, bug‘lanishning transpiratsiyadan yuqoriligi, kam yog‘ingarchilik, geografik joylashuv va shamolga bog‘liq. Bu o‘z navbatida quruq va issiq iqlimga ham bog‘liq, iqlim yaxshi, serquyosh bo‘lsa ekinlardan yaxshi daromat olamiz.” Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha muhim huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy chora tadbirlar ishlab chiqarildi va amalga oshirildi, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish terisida” gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunuvchi va hisobot beruvchi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga aylantirish nazarda tutildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ustuvor vazifalaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan 2017-2021-yillarda vatanimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi

bo'yicha harakat strategiyasida muhim vazifalar o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Prezidentining Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi "Ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, qa'tiy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz" nomli nutqlarida, "Mintaqaning umumiy suv zahiralaridan oqilona foydalanish" borasida, "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bo'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zahiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalalar mavjud. "Ekologiya" tushunchasini fanga birinchi bo'lib nemis biologik Ernest Gekkel 1866-yilda chop etilgan "Organizmlarning umumiy morfologiyasi" nomli kitobi orqali olib kirdi. Bu atama yunonchada "oikos"- uy, yashash joyi, yashash muhiti, "logos"- ta'limot degan ma'noni anglatadi. Ekologiya predmeti bu- organizmlar guruhi va tashqi muhit orasidagi bog'lanishlarning tuzilishini, unga bog'liq bo'lgan jonlantirish, taraqqiy etish, tarqalish va konkurentlik xususiyatlarini; tirik tabiat qanday tuzilgan, qaysi qonunlar asosida mavjud va rivojlanadi, inson ta'siriga qnday javob beradi,- ularning hammasi ekologiya predmeti hisoblanadi. Ekologiya maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash. Ekologik xavfsiz muhit organizmlarning barqaror holatda ko'payishi, o'sishi va rivojlanishi uchun toza, sog'lom va qulay atrof tabiiy muhit holatini yaratishdan iborat. Ekologiya asosiy vazifalarini quyidagicha ta'riflash mumkin: Hayotning tashkil topish qonuniyatlarini inson ta'sirini hisobga olgan holda o'rganish, insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlarni oldindan bilish, biosferadagi kechayotgan jarayonlarni o'rganish, boshqarish, bashorat qilish, inson yashaydigan muhitni saqlab qolish, buzilgan tabiiy tizimlarni tiklash, shu jumladan foydalanishdan chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini yana ishga solish (rekultivatsiya), yaylovlarning tuproq hosildorligini, suv havzalari va boshqa ekotizimlar ming mahsuldorligini tiklash, biologik resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini yaratish va boshqalar. Ekologiya bo'limlari – autokologiya, populyatsiyalar ekologiyasi, sinekologiya kabilar mavjud. Aristotel (eramizdan 384-322-yil avval), qadimgi yunon faylasufi Teofrast (371-280-yil avval) hayvon va o'simliklarni yashash sharoitiga bog'liq holda ko'rib chiqishgan, Aristotel 500 tur hayvonlarni o'rganib, ularning xulq-atvori, ko'chib yurishi haqida, Teofrast- o'simliklarning shakli va o'sishi- iqlim, tuproq sharoitiga bog'liq login aniqlagan, shu tariqa ekologiya fanining rivojlanish tarixi vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-martda BMTga teng

huquqli a’zosi bo’lishi ekologik sohadagi xalqaro hamkorlik uchun ham keng yo‘l ochib berdi.[1].Kundalik turmushimizda “ekologiya” so‘zi tez-tez uchraydi.Bu atama ko‘pincha “Jamiyat”, “Inson”, “Atrof-muhit”, “Salomatlik” kabi so‘zlar orasida tez-tez qo‘llaniladi.Ekologiya tushunchasining ildizi tarixan chuqur bo‘lib, Antik davrga borib taqaladi.Hayvon va o‘simliklarining yer yuzida tarqalishi va ular hayotining tashqi muhit bilan bog‘lanishlari terisidagi ekologik ma’lumotlar yerimizdan avval yashab o‘tgan grek faylasuflari Aristotel va Teofrast Erezeyskiy tomonidan to‘langan. Ammo “Ekologiya” atamasi fanga kechroq kirib keldi.Uni birinchi marta nemis tabiatshunos olimi Ernest Gakkel 1869-yilda chop etilgan o‘zining “Organizmlarning umumiy morfologiyasi” degan kitobi orqali olib kirdi.Uning ta’rifiga ko‘ra, “Ekologiya- tabiatni iqtisodiy jihatdan tadqiq qilish orqali hamma tirik organizmlarning organik va noorganik muhit unsurlari bilan birga, uning ta’sir doirasida turgan antogonistik va noantogonistik aloqadorlikda bo‘lgan o‘simlik va hayvonot dunyosi o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berishi” haqida aytgan.[2]. Ekologiya predmetini bunday tushuntirish keng tarqalgan va ko‘pchilik olimlar tomonidan qabul qilingan.Lekin, E.Gakkel yashagan davrda va ekologiyauning undan keyingi rivojlanish davrlarida ham uning predmeti haqida ancha tortishuvlar bo‘lgani,Bunday tortishuvlarda qatnashgan mutaxassislarning fikricha, “organizmlarning atrof muhit bilan munosabatlari” umumiy ta’rif bo‘lib, u ekologiyauning o‘ziga xos xususiyatlarini ochishga va uning keng biologik fanlar oilasidan ajralib turishiga imkon bermaydi. Ekologiya fanining asosiy vazifasi turvakillari xosil qiladigan populyatsiyalar, turli dengizlar, biosenozlar va ekosistemalarning xosil bo‘lishi, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, ularning muhit bilan munosabatlarini yoritishdan iboratdir.[3].

Xulosa: Biz ekologiyani asrab avaylashimiz, tabiatning tabiiy boyliklaridan unumli va tejab-tergab ishlatishimiz lozim. Ekologiya inson omillari tufayli buzilishga uchramoqda. Masalan, Farg‘ona viloyatining Yozyovon tumanida cho‘llar tabiiy va inson omillari tufayli shakllangan.Yozyovon tumanida- iqlimning quruqligi tufayli iqlim keskin kontinental bo‘lib, yil davomida yog‘ingarchilik kam va bug‘lanish yuqori. Bu hududni qurg‘oqchil hududga aylantiradi.Tuproq eroziyasi; shamol eroziyasi tuproqning unumdor qatlamlarini olib ketib, cho‘lga xos yerlar hosil qilgan. Daryo tizimlarining o‘zgsrishi; O‘zbekiston daryolari (masalan, Sirdaryo) vaqt o‘tishi bilan yo‘nalishini o‘zgartirgan va ba’zi hududlarni suv resurslaridan

mahrum qilgan.”Yozyovon cho‘llari davlat tabiat yodgorligi Respublika ahamiyatiga molik bo‘lgan tabiat yodgorligi bo‘lib, uning asosiy vazifasi Markaziy Farg‘onada yildan-yilga maydoni qisqarib borayotgan qumli cho‘llar landshafti ilmiy, madaniy, ma’rifit, ekologik, estetik va turistik maqsadlar uchun tabiiy holda saqlashdir. ”Yozyovon cho‘llari” tabiat yodgorligi quyidagi ahamiyatga ega:

Farg‘ona vodiysi uchun xos bo‘lgan tipik qumli cho‘l landshaftlarning tabiiy namunasi kelajak avlod uchun saqlab qolinadi; Yodgorlik tabiatni muhofaza qilinishi noyob va kamayib borayotgan o‘simlik va hayvonot dunyosi vakillarini, jumladan qizil astragal, oq saksovul, to‘qayzorlar, chipor kaltakesak, shtraux qurbaqa boshi, echkamar, ko‘rilon, qorovul va boshqalarni saqlab qolish uchun qulay ekologik sharoit yaratadi; Yodgorlik hududida joylashgan kichik suv xavzalari (ko‘chalar) vodiy hududidan uchrab o‘tuvchi parrandalar uchun qulay va havfsiz dam olish joylari vazifasini o‘taydi; Yodgorlikning ajoyib tabiati ta’limiy-ma’rifiy, estetik va turistik maqsadlar uchun foydalaniladigan qiziqarli ob’ektdir va boshqalar.”[4].

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasidagi 72-sessiyasidagi nutqi.

2020-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida prezidentimizning aytgan so‘zlari.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1972-yil Stogolmda bo‘lib o‘tgan BMT “Atrof-muhit va rivojlanish konferensiyasi.

Buriyev S.S, Maxkamova D.A, Sherimbetov V.Xlarning “Ekologiya va Atrof-muhit muhofazasi” kitobi,

Sattorov Z.Mning “Ekologiya” kitobi,

Axmatqul Ergashevning “Umumiy ekologiya” kitobi,

Abdug‘aniyev O.I, Muminova S.Ilarning “Yozyovon cho‘llari” Davlat Tabiat Yodgorligi Markaziy Farg‘ona Tabiatining Andozasi.

Abdulqosimov. A, Soatov. A, Mirjamol.M ming 6-sinf geografiya kitobi.